

KASBIY STANDART XALQ IJODIYOTI FAOLIYATI

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Xalq ijodiyoti faoliyati milliy madaniyatimizning ildizlari, xalqning ko'p asrlik tafakkuri, urf-odatlar va ma'naviy merosini saqlash hamda avlodlar avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Ushbu kasbiy standart aynan shu yo'nalishdagi malakali mutaxassislar tayyorlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va samaradorligini baholashda me'yoriy-metodik asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur standart madaniyat va san'at muassasalarida kadrlar siyosati, ijodiy jamoalarning tashkil etilishi va boshqarilishi, xalq merosini saqlash va ommalashtirish, shuningdek, yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

Bu standart ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari yaratishda, kasbiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yishda, hamda folklor, etnografiya va xalq amaliy san'ati yo'nalishlaridagi faoliyatni tubdan rivojlantirishda yo'l-yo'riq vazifasini bajaradi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

ansambl – milliy kuy-qo'shiqlar, raqslar va marosimiy san'at turlarini uyg'unlashtirib ijro etuvchi, xalqning madaniy merosini sahnada zamonaviy san'at talablariga uyg'un holda namoyon etuvchi ijodiy jamoa;

bilim– kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

bolalar teatr studiyasi – yosh avlodda sahna san'atiga muhabbat uyg'otish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, ijodiy fikrlash va obrazli ifoda ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli mashg'ulotlar jarayoni;

dekorativ-amaliy va tasviriy san'at studiyasi – milliy amaliy bezak san'atini, qo'l mehnati va tasviriy san'at an'analarini o'rgatish, yoshlarni milliy madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ijodkorlik va estetik tafakkurni rivojlantiruvchi ijodiy muhit;

folklor – xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasini, urf-odat va an'analarini, hayot tarzini aks ettiruvchi og'zaki va amaliy ijod namunalari majmuasi bo'lib, u

milliy ma'naviyatning ma'naviy qudrati va estetik jihatdan tarbiyaviy ahamiyatini ifoda etadi;

folklor-etnografik ansambl – xalq an'anaviy marosimlarini, urf-odat va turmush tarzini sahnaviy vositalar yordamida qayta tiklash, madaniy merosni hayotga yaqin holda namoyon qilish orqali milliy o'zlikni mustahkamlovchi ijodiy yo'nalish;

ijrochi – ashula aytuvchi yoki biror muzika asbobida chaladigan musiqachi;

improvizator — oldindan tayyorgarliksiz muzika asarini yaratuvchi, badiha tarzida ijro etish;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'RQ-668-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (53, 61 va 78-79-moddalar);

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (113, 118, 185 va 209-417-moddalar);

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son-Qarori (IFUT-2.1).

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Xalq ijodiyoti faoliyati	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi	Xalq ijodiyoti sohasidagi kasbiy faoliyatning bosh maqsadi – milliy ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, uning ildizlari va an'alarini zamonaviy hayot talablariga uyg'un holda rivojlantirish, yosh avlod ongiga milliy o'zlik va estetik didni chuqur singdirishdir. Shu bilan birga, milliy urf-odatlarini qayta tiklash, folklor va etnografik yo'nalishdagi ijodiy jamoalarni tashkil etish, xalq amaliy va tasviriy san'atini targ'ib qilish orqali madaniy-ma'naviy hayotga teran mazmun bag'ishlash ko'zda tutiladi	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	S seksiyasi San'at, sport va dam olish 90-Badiiy ijod va ijro san'ati sohasidagi faoliyat 90.1-Badiiy ijod sohasidagi faoliyat 90.11-Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat 90.11.0-Adabiy ijod va musiqiy kompozitsiya sohasidagi faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Ushbu standart xalq ijodiyotining turli yo'nalishlarini – teatr studiyalari, folklor va etnografik ansambllar, amaliy va tasviriy san'at studiyalari faoliyatini qamrab oladi. Uning asosiy yo'nalishlari milliy folklor, etnografik va amaliy san'at merosini saqlash va rivojlantirish yoshlar ongida estetik did, ijodiy qobiliyat va milliy iftixor tuyg'usini uyg'otish madaniy-ma'rifiy muassasalarda xalq ijodiyoti asosida zamonaviy ijodiy muhit yaratish mahalliy va xalqaro ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etish orqali milliy san'atning nufuzini yuksaltirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	Malaka darajasi:
		34350016-Bolalar teatr studiyasi rahbari	3-5
		34350032-Folklor ansambl rahbari	3-5
		34350033-Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si	3-5
		34350008-Badiiy bezash studiyalari rahbari	3-5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	34350016 Bolalar teatr studiyasi rahbari	A1.3	Bolalarni sahna san'ati asoslari bilan tanishtirish	A1.01.3	Xalq ijodiyoti elementlari orqali teatr san'atiga qiziqish uyg'otish
				A1.02.3	Milliy qo'shiqlar va maqollar asosida sahna nutqini rivojlantirish
				A1.03.3	Milliy obrazlar orqali bolalarning sahnada o'zini erkin namoyon qilishiga ko'maklashish
		A2.4	Ijodiy muhit yaratish va sahna jarayonini shakllantirish	A2.01.4	Xalq marosimlari asosida ijodiy muhit yaratish
				A2.02.4	Sahna nutqini takomillashtirish uchun milliy qo'shiqlar va maqollardan foydalanish
				A2.03.4	Milliy obrazlarda ijodiy ifodani mustahkamlash va kichik sahna mashqlariga yo'naltirish
		A3.4	Bolalar ishtirokida sahnaviy asarlarni tayyorlash	A3.01.4	Sahnaviy asar uchun oddiy parchalarni tanlash va bolalar bilan mashq qilish
				A3.02.4	Sahnaviy asarlar bo'yicha muntazam repetitsiyalar tashkil qilish
				A3.03.4	Milliy mavzudagi sahnaviy asarni tayyorlash va kichik sahnalarda namoyish qilish
		A4.5	Bolalar teatr studiyasida sahna jarayonlarini professional darajada boshqarish	A4.01.5	Repetitsiya jarayonlarini kompleks rejalashtirish va ijodiy guruhlar ishini boshqarish
				A4.02.5	Milliy mavzudagi sahna asarining rejissorlik yechimini ishlab chiqish va ijodiy jamoani boshqarish
				A4.03.5	Milliy obrazlar va ifoda vositalaridan foydalanib professional sahna ko'rinishlarini yaratish
		A5.5	Yirik sahnaviy loyihalarni ishlab chiqish va namoyish qilish	A5.01.5	Bolalar ishtirokida etnografik sahnaviy tomoshalarni yuqori darajada tayyorlash
				A5.02.5	Milliy mavzudagi spektakllarni namoyishga tayyorlash uchun ssenariy va rejissorlik yechimlarini ishlab chiqish
				A5.03.5	Murakkab sahna mashqlarini, harakat va nutq uyg'unligini boshqarish

2	34350032 Folklor ansambl rahbari	A6.5	Milliy teatr pedagogikasini rivojlantirish va metodik faoliyatni yo'lga qo'yish	A6.01.5	Xalq ijodiyoti asosida teatrlashtirilgan darslar uchun metodik yondashuv ishlab chiqish
				A6.02.5	Xalq marosimlari asosidagi sahna mashg'ulotlarini o'quv dasturiga integratsiya qilish
				A6.03.5	Etnografik va milliy yo'nalishdagi ijodiy loyihalar bo'yicha uslubiy ishlanmalar yaratish
		B1.3	Folklor ijrochiligiga boshlang'ich tayyorlov berish	B1.01.3	Folklor qo'shiq va kuylarning boshlang'ich darajada o'rgatilishini tashkil etish
				B1.02.3	Ansambl uchun sodda repertuar namunalarini shakllantirish
				B1.03.3	Ijrochilar bilan individual musiqa va ovoz mashqlarini o'tkazish
		B2.4	Folklor ansamblida ijrochilarni o'rtacha darajada tayyorlash va repertuarni rivojlantirish	B2.01.4	Folklor kuy va qo'shiqlarni guruh bo'lib ijro etishga yo'naltirish
				B2.02.4	Ijrochilar bilan ovoz va musiqa bo'yicha murakkabroq tayyorgarlikni olib borish
				B2.03.4	Repertuarni milliy festivallarga moslab tayyorlash
		B3.4	Ansamblning sahnaviy faoliyatini tashkil etish	B3.01.4	Ansambl faoliyatini rejalashtirish va badiiy yo'nalishni belgilash
				B3.02.4	Sahna ko'rinishlari uchun milliy musiqiy materiallarni tanlash va tayyorlash
				B3.03.4	Repetitsiya jarayonini boshqarish va ijroni uyg'unlashtirish
		B4.5	Folklor ansamblini professional darajada boshqarish	B4.01.5	Ansamblning yillik ijodiy konsepsiyasini ishlab chiqish va ijrochilar tarkibini shakllantirish
				B4.02.5	Murakkab musiqa va vokal uyg'unligini ta'minlovchi repetitsiyalarni boshqarish
				B4.03.5	Repertuarni professional darajada boyitish va yangilash
		B5.5	Yirik sahnaviy loyihalar va festivallarga tayyorgarlikni boshqarish	B5.01.5	Milliy festivallar uchun ansamblning ijodiy rejasi va sahnalashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish
				B5.02.5	Festivallar va ommaviy tadbirlar uchun maxsus sahnaviy ko'rinishlar yaratish
				B5.03.5	Namoyish oldi mashqlarni nazorat qilish va sahna tayyorgarligini yakuniy ko'rinishga keltirish
		B6.5		B6.01.5	Folklor kuy va qo'shiqlarni o'rgatish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish

			Folklor ijodiyotini rivojlantirish va metodik faoliyatni olib borish	B6.02.5	Yosh ijrochilar uchun vokal–musiqiy tayyorgarlik bo'yicha maxsus dasturlar yaratish
				B6.03.5	Milliy folklor materiallarini targ'ib qilishga qaratilgan ijodiy loyihalarni tashkil etish
3	34350033 Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si	D1.3	Sodda folklor qo'shiq va kuylarni o'rganish va ijro qilish	D1.01.3	Sodda xalq qo'shiqlari va kuylarini o'rgatish va ijro etish
				D1.02.3	Marosimiy qo'shiq va kuylarni ansambl tarkibida ijro qilish
				D1.03.3	Milliy qo'shiqlar va kuylarning sodda dramatzatsiya elementlarini bajarish
		D2.4	Folklor-etnografik ijro malakasini o'rtacha darajada rivojlantirish	D2.01.4	Folklor qo'shiqlarini ansambl bilan uyg'un holda ijro etish
				D2.02.4	Marosimiy qo'shiqlarni sahna talablari asosida sayqallab ijro qilish
				D2.03.4	Etnografik ansambl bilan kichik festival va tadbirlarda chiqish qilish
		D3.4	Etnografik ansambl uchun sahnaviy ko'rinishlar tayyorlash	D3.01.4	Sodda etnografik qo'shiqlarni sahnaga moslab tayyorlash
				D3.02.4	Marosimiy qo'shiqlarni sahnaviy ko'rinishlar bilan uyg'unlashtirish
				D3.03.4	Oddiy sahnaviy dramatzatsiya jarayonida ishtirok etish
		D4.5	Etnografik ansambl tarkibida professional ijro faoliyatini olib borish	D4.01.5	Marosimiy qo'shiqlar va kuylarni professional darajada ijro etish
				D4.02.5	Milliy kuy va qo'shiqlarga dramatik ifoda, sahnaviy harakat qo'shish
				D4.03.5	Yirik festival va ommaviy tadbirlarda ansambl bilan ishonchli ijro qilish
		D5.5	Sahnaviy etnografik ko'rinishlarni ishlab chiqish va boshqarish	D5.01.5	Etnografik qo'shiq va kuylarni sahna uchun to'liq tayyorlash
				D5.02.5	Murakkab sahnaviy ko'rinishlar va marosimiy sahnalarni uyg'unlashtirish
				D5.03.5	Etnografik qo'shiqlar asosidagi dramatzatsiya jarayonini boshqarish
		D6.5	Etnografik ansamblning ijodiy loyihalarini tashkil qilish va olib borish	D6.01.5	Ansambl bilan yirik festival va ommaviy chiqishlarni tashkil etish
				D6.02.5	Milliy kuy-qo'shiqlarni teatr-kompozitsiya shaklida ijro etish
				D6.03.5	Ansambl ijrosini milliy an'analar asosida sahna talablari bilan uyg'unlashtirish

4	34350008 Badiiy bezash studiyalari rahbari	E1.3	Badiiy bezash bo'yicha oddiy ishlarni tashkil etish	E1.01.3	Oddiy rasm, naqsh va bezak elementlarini o'rgatish
				E1.02.3	Boshlang'ich darajadagi dekorativ ishlar (devor bezagi, kichik maketlar)ni tashkil qilish
				E1.03.3	O'quvchilarni sodda badiiy materiallar bilan ishlashga o'rgatish (qalam, guash, rangli qog'oz va boshqalar)
		E2.4	Badiiy bezash studiyasida o'rtacha darajadagi dekorativ ishlarni tashkil etish	E2.01.4	Dekorativ san'at elementlari bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish
				E2.02.4	O'quvchilar bilan murakkabroq bezak va kompozitsiyalarni yaratish
				E2.03.4	Studiyaning kichik ko'rgazmalari uchun badiiy ishlarni tayyorlash
		E3.4	Studiyaning ijodiy jarayonlarini boshqarish	E3.01.4	Studiyaning o'quv rejalari va mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish
				E3.02.4	Badiiy materiallar (bo'yoq, karton, bezak buyumlari)ni tanlash va ta'minlash
				E3.03.4	O'quvchilar ishlarini baholash va ijodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash
		E4.5	Murakkab badiiy loyihalar va dekor ishlari bo'yicha rahbarlik qilish	E4.01.5	Murakkab dekorativ kompozitsiyalarni loyihalash va boshqarish
				E4.02.5	Yirik bezak ishlari uchun rang, kompozitsiya va material tanlash bo'yicha rahbarlik qilish
				E4.03.5	O'quvchilarni ijodiy ko'rgazmalar va tanlovlarga tayyorlash
		E5.5	Studiyaning badiiy-ijodiy yo'nalishini belgilash	E5.01.5	Yillik ijodiy reja va badiiy konsepsiyani ishlab chiqish
				E5.02.5	Studiya zamonaviy dekorativ san'at usullarini joriy etish
				E5.03.5	Hamkor tashkilotlar bilan ijodiy loyihalar va ko'rgazmalarni tashkil etish
		E6.5	Studiyaning boshqaruv va tashkiliy faoliyatini olib borish	E6.01.5	Studiyaning moddiy-texnik bazasini boshqarish va yangilash
				E6.02.5	O'qituvchilar (yordamchilar) faoliyatini muvofiqlashtirish
				E6.03.5	Hisobotlar, rejalashtirish hujjatlari va tashkiliy ishlarni yuritish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Bolalar teatr studiyasi rahbari
Mashg'ulot nomining kodi	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi	3-5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 va 4-daraja uchun ish staji talab etilmaydi 5-darajaga ega bo'lish uchun nomzod Teatr yoki sahna san'ati bo'yicha boshlang'ich 1-yillik amaliy tajriba Bolalar bilan individual yoki kichik guruh mashg'ulotlarini olib borish tajribasi Oddiy sahnaviy mashqlar va mini rol ijrosida ishtirok etgan bo'lishi kerak
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi talab etiladi; Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur; Teatr mashg'ulotlari va sahnaviy tayyorgarlik jarayonida katta jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, turli yoshdagi bolalar va ularning ota-onalari bilan muloqotda bo'lish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi; Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalari bo'yicha ko'rsatmalarni o'zlashtirganligi hamda favqulodda holatlarda tezkor va xavfsiz qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish;

	- Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish - Ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	3-daraja boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim 4-daraja o'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim 5-daraja o'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Xizmatchi mutaxassis Bolalar teatr studiyasi rahbari	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3-5	Folklor ansambl rahbari
	3-5	Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si
	3-5	Badiiy bezash studiyalari rahbari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	O'qitish natijalari	
	Mehnat vazifalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Mashg'ulotlarda xalq og'zaki ijodidan (ertak, doston, rivoyat) qisqa parchalarni tanlab o'qib berish	

A1.3 Bolalarni sahna san'ati asoslari bilan tanishtirish	A1.01.3 Xalq ijodiyoti elementlari orqali teatr san'atiga qiziqish uyg'otish	2. Bolalarni milliy o'yinlar, topishmoqlar va sahna mashqlariga jalb qilish
		3. Xalq ijodiyoti asosida kichik sahna ko'rinishlarini tashkil etish va ijro ettirish
		Ko'nikma:
		Xalq ijodiyoti namunalarini yoshga mos tanlash
		Bolalarda qiziqish uyg'otuvchi interaktiv teatr mashqlarini qo'llash
		Sahnaga mos oddiy ijodiy vazifalarni bolalarga tushuntirish
		Bilim:
		O'zbek xalq og'zaki ijodi, ertaklar, maqollar, topishmoqlar
		Teatr san'ati asoslari (rol, sahna, harakat, mimika)
		Bolalar psixologiyasi va yosh xususiyatlariga mos metodik yondashuvlar
	A1.02.3 Milliy qo'shiqlar va maqollar asosida sahna nutqini rivojlantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Bolalarga milliy qo'shiqlarni talaffuz, ritm va nafas bilan birga kuylashni mashq qildirish
		2. Maqollar asosida diksiyani yaxshilash uchun sheva, urg'u, ifoda mashqlarini o'tkazish
		3. Sahnada nutqni aniq aytish uchun matn bilan ishlash mashqlarini tashkil etish
		Ko'nikma:
		Nutq apparatini rivojlantirishga doir mashqlarni o'rgatish
		Maqollarni sahna nutqiga mos ifoda bilan o'qitish
		Bolalarning nutqidagi xatolarni to'g'ri ko'rsatib, yumshoq pedagogik usulda tuzatish
		Bilim:
		Milliy qo'shiqlar va maqollarning ma'nosi, ritmik tuzilishi
		Sahnadagi nutq madaniyati, diksion va artikulyatsiya qoidalari
		Bolalarda nutq rivojlanish bosqichlari va pedagogik metodlar
	A1.03.3 Milliy obrazlar orqali bolalarning sahnada o'zini erkin namoyon qilishiga ko'maklashish	Mehnat harakatlari:
		1. Milliy qahramonlar obrazlarini tanlab, bolalarga ularning xarakterini tushuntirish
		2. Obrazga kirish mashqlari (xatti-harakat, mimika, his-tuyg'u)ni o'tkazish
		3. Milliy libos va rekvizitlardan foydalanib, kichik sahna ko'rinishlarini ijro ettirishga ko'maklashish
		Ko'nikma:
		Obraz yaratishda bolaga mos metodlardan foydalanish
		Sahnada erkin harakat qilish va o'zini tutishni o'rgatish

		Milliy obrazlarning xususiyatlarini sodda usulda tushuntirish
		Bilim:
		Milliy qahramonlar, obrazlar va ularning xarakter xususiyatlari
		Sahnada his-tuyg'u, xarakter, mimika bilan ishlash asoslari
		Bolalarning ijodiy faolligini oshirish metodlari
A2.4 Ijodiy muhit yaratish va sahna jarayonini shakllantirish	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Boshlang'ich darajadagi sahna mashqlarini o'tkazishda mustaqil ishlash va o'quvchilarga individual yondashish
		2. Oddiy ijodiy topshiriqlarni tanlash va ularni bolalar yoshiga moslab soddalashtirishda mustaqil qaror qabul qilish
		3. Mashg'ulotni tashkil etishda yuzaga keladigan kichik muammolarni (tushunmovchilik, chalg'ish, moslashish) mustaqil hal qilish
	A2.01.4 Xalq marosimlari asosida ijodiy muhit yaratish	Mehnat harakatlari:
		1. Xalq marosimlaridan (Navro'z, Sumalak, Beshik to'yi, Suyunchi va boshqalar) sahna mashg'ulotlari uchun mazmunli epizodlar tanlash
		2. Marosimlarga xos raqs, qo'shiq, duo va iboralarni mashg'ulot jarayoniga kiritish
		3. Marosim elementlari asosida kichik sahna ko'rinishlari va rolli o'yinlarni tashkil etish
		Ko'nikma:
		Xalq marosimlari materialini yoshga mos ijodiy mashg'ulotlarga aylantirish
		Bolalarda ijodiy ishtirokni oshiruvchi guruhli o'yin va sahna vazifalarini tashkil etish
		Marosimni sahna ko'rinishiga moslashtirib, oddiy rejissyorlik yondashuvini qo'llash
		Bilim:
		O'zbek xalq marosimlari, urf-odatlar va ularning asosiy mazmuni
		Marosimlar orqali badiiy-estetik tarbiya berish metodlari
		Sahnada jamoaviy ijodiy muhit yaratishning asosiy tamoyillari
		Mehnat harakatlari:
		1. Milliy qo'shiqlardan foydalanib, talafuz, nafas, ritm va intonatsiya bo'yicha nutq mashqlarini tashkil etish
		2. Maqollarni diksiyani aniqlashtirish uchun individual va guruhli ifoda mashqlarida qo'llash

	A2.02.4 Sahna nutqini takomillashtirish uchun milliy qo'shiqlar va maqollardan foydalanish	3. Sahna oldidan nutqni tozalash va ifodani kuchaytirish uchun fonetik mashqlarni o'tkazish
		Ko'nikma:
		Nutq apparatini mustahkamlovchi milliy ohangli mashqlarni tuzish va o'rgatish
		Bolalarning nutqidagi kamchiliklarni aniqlab, ularni maqol va qo'shiqlar orqali tuzatish
		Sahna nutqiga mos ravishda matn bilan ishlashni tashkil etish (urg'u, pauza, tezlik)
		Bilim:
		Milliy qo'shiqlar, maqollar va ularning nutq rivojidadagi o'rni
		Sahnada nutq texnikasi: diksion, artikulyatsiya, nafas va ovoz boshqaruvi
		Bolalarda nutqni bosqichma-bosqich rivojlantirish pedagogik asoslari
	A2.03.4 Milliy obrazlarda ijodiy ifodani mustahkamlash va kichik sahna mashqlariga yo'naltirish	Mehnat harakatlari:
		1. Milliy obrazlarning xarakter, holat va harakatlariga mos sahna mashqlarini o'tkazish
		2. Obrazni chuqur his qilish uchun mimika, his-tuyg'u va tana erkinligi mashqlarini berish
		3. Bolalarni milliy qahramonlar obrazlarini kichik sahna ko'rinishlarida ijro etishga yo'naltirish
		Ko'nikma:
		Obraz yaratishda bolalarni ruhlantirish va ularga mos ijodiy yondashuvni tanlash
		Sahnada erkin, tabiiy va ifodali harakat qilishni o'rgatish
		Milliy obrazlar asosida kichik spektakl yoki epizodlar uchun oddiy sahnalashtirish
		Bilim:
		Milliy obrazlar va xalq qahramonlarining xarakter xususiyatlari
		Sahnada emotsional ifoda, xarakterga kirish va obraz yaratishning asosiy tamoyillari
		Bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha pedagogik metodlar
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Mashg'ulot shakllari, sahna mashqlari va ijodiy topshiriqlarni mustaqil tanlash, ularni bolalarning imkoniyatiga mos ravishda moslashtirish
		2. Sahna harakatlari, sahna nutqi va obraz yaratish jarayonida mustaqil pedagogik va ijodiy qarorlar qabul qilish

		3. Ijodiy muhitni yaxshilash, sahna jarayonini rivojlantirish uchun o'z tashabbusi bilan yangi materiallar, mashg'ulot usullari va milliy unsurlarni joriy etish
A3.4 Bolalar ishtirokida sahnaviy asarlarni tayyorlash	A3.01.4 Sahnaviy asar uchun oddiy parchalarni tanlash va bolalar bilan mashq qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Bolalarning yoshi va imkoniyatiga mos sahna parchalarini tanlab olish
		2. Parchalardagi matn, harakat va obrazlarni bosqichma-bosqich tushuntirib berish
		3. Mashq jarayonida bolalarning talaffuz, harakat va emotsional ifodasini kuzatib tuzatish
		Ko'nikma:
		Oddiy matn va rollarni bolalarga tushunarli qilib o'rgatish
		Mashg'ulot vaqtida guruhni boshqarish va intizomni saqlash
		Sahnadagi harakat va nutqni moslashtirish
		Bilim:
		Bolalar sahnalashtirishi uchun mos bo'lgan kichik adabiy va dramatik materiallar
	A3.02.4 Sahnaviy asarlar bo'yicha muntazam repetitsiyalar tashkil qilish	Sahnada nutq va harakat asoslari: urg'u, ritm, pauza va obraz ifodasi
		Bolalarning yosh psixologiyasi va ijodiy rivojlanish xususiyatlari
		Mehnat harakatlari:
		1. Repetitsiya jadvalini tuzish va bolalarni bosqichma-bosqich tayyorlash
		2. Har bir repetitsiyada sahna harakatlari, nutq, ovoz va obraz ustida ishlash
		3. Repetitsiya davomida xatolarni aniqlash va darhol bartaraf etish
		Ko'nikma:
		Repetitsiya jarayonini samarali tashkil qilish va vaqtni boshqarish
		Bolalarda ijodiy faollik va sahnadagi ishonchni oshirish
		Pyesa yoki sahna ko'rinishlarining ketma-ketligini to'g'ri shakllantirish
		Bilim:
		Repetitsiya metodlari: takrorlash, tahlil qilish, o'yin orqali o'rgatish usullari
		Sahnada jamoaviy uyg'unlik va ansambl hissini shakllantirishning asoslari
		Nutq texnikasi, ovoz boshqaruvi va sahna harakati

	A3.03.4 Milliy mavzudagi sahnaviy asarni tayyorlash va kichik sahnalarda namoyish qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Milliy mavzudagi pyesa yoki ko'rinishdan mos sahna bo'laklarini tanlash va ssenariyga moslashtirish
		2. Bolalar bilan milliy obraz, kiyim, harakat va nutq ustida ishlash
		3. Tayyorlangan sahna ko'rinishini guruh oldida yoki kichik maydonda namoyishga chiqarish
		Ko'nikma:
		Milliy obrazlar va qadriyatlarni bolalarga mos shaklda sahnalashtirish
		Sahnada koordinatsiya, ritm, ovoz va harakatni uyg'unlashtirish
		Kichik spektaklni rejissyorlik qatlamida tartibga solish
		Bilim:
		Milliy teatr san'ati, obrazlar, marosim va folklor elementlari
		Kichik spektaklni sahnalashtirish jarayonlari: ssenariy, mizansen, obraz yechimi
		Tomoshabin oldida chiqish madaniyati va sahna etikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Sahna mashqlarini rejalashtirish, rollarni taqsimlash, kichik sahnaviy epizodlarni shakllantirishda mustaqil qarorlar qabul qilish
		2. Repetitsiya jarayonida bolalar bilan ishlashda pedagogik va ijodiy yondashuvlarni mustaqil tanlash va jarayonni boshqarish
		3. Zarurat tug'ilganda sahna materiallarini soddalashtirish, moslashtirish yoki qayta ishlash bo'yicha mustaqil tashabbus ko'rsatish
A4.5 Bolalar teatr studiyasida sahna jarayonlarini professional darajada boshqarish	A4.01.5 Repetitsiya jarayonlarini kompleks rejalashtirish va ijodiy guruhlar ishini boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Spektaklning to'liq ijodiy jarayoniga mos bo'lgan batafsil repetitsiya rejasini ishlab chiqish
		2. Aktyorlar, musiqa, raqs va texnik guruhlar ishtirokini uyg'unlashtirib, repetitsiya jarayonini boshqarish
		3. Jarayon davomida yuzaga kelgan ijodiy va texnik muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish
		Ko'nikma:
		Murakkab ijodiy jarayonlarni tashkil qilish va boshqarish
		Bir nechta ijodiy guruhlar o'rtasida samarali kommunikatsiya o'rnatish
		Repetitsiya jarayonini vaqt, bosqich va natija bo'yicha optimallashtirish

		Bilim: Rejissyorlik jarayonlari, sahna texnologiyasi va ansambl ishlash tamoyillari Ijodiy jamoa psixologiyasi, motivatsiya va boshqaruv usullari Repetitsiya jarayonining pedagogik, texnik va badiiy talablari
	A4.02.5 Milliy mavzudagi sahna asarining rejissyorlik yechimini ishlab chiqish va ijodiy jamoani boshqarish	Mehnat harakatlari: 1. Milliy mavzudagi asar mazmuni, obrazlari va marosim unsurlariga asoslangan rejissyorlik konsepsiyasini yaratish 2. Sahna joylashuvi, mizansenlar, ritm va obraz yechimlarini ishlab chiqish va jamoaga tushuntirish 3. Ijodiy jamoa (aktyorlar, musiqachilar, dizaynerlar) ishini rejissorlik talqini asosida boshqarish Ko'nikma: Milliy mavzularni badiiy va zamonaviy rejissyorlik yondashuvlari orqali talqin qilish Jamoaga sahna tasavvurini aniq yetkazish va ijodiy jarayonda yetakchilik qilish Sahna asarining dramatik tuzilmasini shakllantirish va uni boshqarish Bilim: Milliy teatr, folklor, marosim san'ati va an'anaviy obrazlar Rejissyorlik dramaturgiyasi, sahna mizanseni, ritm, konflikt va kompozitsiya asoslari Spektakl yaratuvchi bo'limlar (musiqa, yorug'lik, dekor, kostyum) bilan ishlash qoidalari
	A4.03.5 Milliy obrazlar va ifoda vositalaridan foydalanib professional sahna ko'rinishlarini yaratish	Mehnat harakatlari: Milliy obrazlar, marosim unsurlari, raqs va musiqiy elementlarni uyg'unlashtirgan sahna ko'rinishlarini yaratish Aktyorlarga obrazning xarakter, harakat, intonatsiya va ifoda vositalarini chuqur o'rgatish Tayyor sahna ko'rinishlarini professional sahnalashtirish talablari asosida sozlash va mukammallashtirish Ko'nikma: Obraz yaratishda milliy san'at, marosimlar va folklor elementlarini samarali qo'llash Professional sahna ifodasi (ovozi, harakat, ritm, dinamika)ni boshqarish Sahnadagi badiiy uyg'unlik musiqa-harakat-nutq-dekor uyg'unligini yarata olish

		Bilim:
		Milliy obraz yaratish texnologiyasi, xalq marosimlari va folklor estetikasining asoslari
		Professional sahna madaniyati, aktyor mahorati, ifoda vositalari va badiiy kompozitsiya
		Dekor, kostyum, rekvizit va sahna dizayni
A5.5 Yirik sahnaviy loyihalarni ishlab chiqish va namoyish qilish	Mas’uliyat mustaqillik va	1. Sahna jarayonlarini rejalashtirish, mashg’ulotlar ketma-ketligini belgilash, sahna harakatlari bo’yicha qarorlar qabul qilishda mustaqil ishlash
		2. Repetitsiya jarayonida yuzaga keladigan pedagogik, ijodiy yoki texnik muammolarni mustaqil hal qilish va zarur bo’lsa, sahna jarayoniga innovatsion yondashuvlar kiritish
		3. Teatr studiyasi faoliyatini takomillashtirish, ijodiy guruhni rivojlantirish, yangi sahna loyihalarini joriy etish bo’yicha mustaqil tashabbus ko’rsatish va o’z faoliyatini mas’uliyat bilan baholash
	A5.01.5 Bolalar ishtirokida etnografik sahnaviy tomoshalarni yuqori darajada tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Etnografik materiallar asosida sahna ko’rinishining dramaturgik tuzilmasini yaratish
		2. Bolalar obrazlarining harakat, nutq va sahnaviy xulqini to’g’ri yo’naltirib repetitsiyalarni olib borish
		3. Tayyor sahna ko’rinishining musiqa, raqs, rekvizit va dekor bilan uyg’unligini yakuniy tekshirish
		Ko’nikma:
		Etnografik mavzularni sahnaviy shaklga moslashtirish va sahnalashtirish
		Bolalar bilan murakkab ijodiy jarayonni boshqarish
		Sahnadagi badiiy, texnik va ijro uyg’unligini ta’minlash
		Bilim:
		Xalq etnografiyasi, marosimlari va milliy an’analari
		Bolalar teatr pedagogikasi va yosh xususiyatlari
		Sahna texnologiyasi, dekor, rekvizit va yorug’lik ishlanmalari asoslari
		Mehnat harakatlari:
		1. Spektakl uchun milliy an’analarga asoslangan dramaturgik ssenariy ishlab chiqish
		2. Har bir sahnaning mizanseni va rejissorlik yechimini badiiy jihatdan shakllantirish
		3. Ssenariyga mos sahna texnikasi, dekor va musiqiy yechimlarni joriy etish

	A5.02.5 Milliy mavzudagi spektakllarni namoyishga tayyorlash uchun ssenariy va rejissyorlik yechimlarini ishlab chiqish	Ko'nikma:
		Dramaturgiya, ssenariy yaratish va sahna kompozitsiyasini qurish
		Rejissorlik yechimlarini jamoaga aniq tushuntirish va boshqarish
		Milliy obrazlar va marosim unsurlarini sahna talqinida qo'llash
		Bilim:
		Milliy folklor, urf-odatlar va marosim san'atining dramatik xususiyatlari
		Rejissyorlik nazariyasi, spektakl tuzilishi, mizansen va kompozitsiya asoslari
	A5.03.5 Murakkab sahna mashqlarini, harakat va nutq uyg'unligini boshqarish	Ssenariy yozish metodikasi va dramaturgik qurilish tamoyillari
		Mehnat harakatlari:
		1. Harakat, ritm va nutqni uyg'unlashtiruvchi murakkab sahna mashqlarini ishlab chiqish
		2. Aktyorlar bilan ovoz, intonatsiya, plastika va ritm mashqlarini kompleks tashkil qilish
		3. Mashqlar jarayonida sahna xavfsizligini va texnik talablarni nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Harakat–nutq–ritm uyg'unligini ta'minlaydigan murakkab sahna mashqlarini boshqarish
		Professional sahna nutqi va harakat texnikasini o'rgatish
		Aktyorlarning diqqat, intonatsiya va harakat koordinatsiyasini nazorat qilish
		Bilim:
	Mas'uliyat va mustaqillik	Sahna plastika, ritmika, aktyor nutqi va ovoz texnikasi asoslari
		Sahnada xavfsizlik qoidalari
		Murakkab mashqlarni psixologik va jismoniy jihatdan to'g'ri tashkil etish tamoyillari
		1. Katta sahnaviy loyihalarni rejalashtirish, byudjetlashtirish, boshqarish hamda ijodiy yechimlar bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish
		2. Loyihaning konseptual, rejissyorlik va tashkiliy bosqichlarida murakkab masalalarni mustaqil hal qilish, zarur hollarda innovatsion sahna texnologiyalari va ijodiy yondashuvlarni joriy etish
		3. Taqdimot, namoyish va ommaviy chiqishlar sifatini doimiy nazorat qilib borish hamda yakuniy ijodiy yechimlarni mustaqil ekspert sifatida baholash

A6.5 Milliy teatr pedagogikasini rivojlantirish va metodik faoliyatni yo'lga qo'yish	A6.01.5 Xalq ijodiyoti asosida teatrlashtirilgan darslar uchun metodik yondashuv ishlab chiqish	Mehnat harakatlari:
		1. Xalq ijodiyoti asosidagi sahnaviy elementlarni o'quv darsiga moslashtirish
		2. Dars uchun metodik ishlanma, ssenariy va sahnaviy mashqlarni ishlab chiqish
		3. Tayyorlangan metodikani sinf va studiya sharoitida sinovdan o'tkazish
		Ko'nikma:
		Xalq ijodiyoti unsurlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish
		Teatrlashtirilgan darslar uchun metodik material yaratish
		Dars jarayonida bolalarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish
		Bilim:
		Xalq og'zaki ijodi, marosimlar va folklor turlari
		Pedagogika va teatr pedagogikasi asoslari
		Teatrlashtirilgan dars metodikasi va innovatsion ta'lim texnologiyalari
	A6.02.5 Xalq marosimlari asosidagi sahna mashg'ulotlarini o'quv dasturiga integratsiya qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Xalq marosimlaridan olingan sahna mashqlarini dars jarayoniga mos shaklda ishlab chiqish
		2. Ularni o'quv dasturining mavzu bloklari bilan uyg'unlashtirish
		3. Mashg'ulot jarayonida marosim unsurlarining ma'no va mazmunini o'quvchilarga tushuntirish
		Ko'nikma:
		Marosim elementlarini sahna mashqlariga moslashtirish
		O'quv dasturlariga milliy elementlarni ilmiy-metodik asosda kiritish
		Bolalarda milliy qadriyatlarni qabul qildirish va amalda qo'llashga yo'naltirish
		Bilim:
		Xalq marosimlari, qadriyatlar va ularning pedagogik ahamiyati
		O'quv dasturi tuzilishi va metodik integratsiya tamoyillari
		Sahna mashg'ulotlari texnologiyasi va pedagogik yondashuvlar
		Mehnat harakatlari:
		1. Etnografik va milliy yo'nalishdagi ijodiy loyihalar uchun metodik qo'llanmalar tuzish
		2. Turli yosh guruhlari uchun xalq ijodiyotiga asoslangan ijodiy topshiriqlar ishlab chiqish

	A6.03.5 Etnografik va milliy yoʻnalishdagi ijodiy loyihalar boʻyicha uslubiy ishlanmalar yaratish	3. Yaratilgan uslubiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va natijalarni tahlil qilish
		Koʻnikma:
		Etnografik yoʻnalishdagi pedagogik-uslubiy materiallar yaratish
		Loyihaviy faoliyatni rejalashtirish va baholash
		Ijodiy loyihalarda milliy anʼanalarni badiiy talqin qilish
		Bilim:
		Etnografiya, folklor, milliy qadriyatlar va sanʼat turlari
		Metodik qoʻllanma yaratish tamoyillari va taʼlim texnologiyalari
	Masʼuliyat va mustaqillik	Ijodiy loyihalar boshqaruvi, monitoring va baholash usullari
		1. Milliy teatr pedagogikasiga oid ilmiy-uslubiy qarashlarni ishlab chiqishda, tajribalarni umumlashtirishda va innovatsion metodlarni joriy etishda mustaqil tashabbus koʻrsatish
2. Taʼlim jarayonida yuzaga keladigan ijodiy, tashkiliy va metodik muammolarni mustaqil hal qilish hamda zarur hollarda yangi yondashuvlarni joriy qilish		
Texnik va/yoki texnologik talab		3. Milliy teatr pedagogikasini rivojlantirish boʻyicha strategik loyihalarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va boshqarishda mustaqil professional fikr yuritish
		1. Kichik sahna platformasi (koʻchma yoki statsionar)
		2. Sahna yoritish jihozlari (proyektor, LED chiroqlar, rangli yoritish filtrlari)
		3. Sahna mikrofonlari (qoʻl mikrofon, boʻyin mikrofon)
		4. Audio tizim (kolonki, mikser pult)
		5. Fon musiqasi va effektlar uchun player (kompyuter, planshet, portativ dinamika)
		6. Diktofon (nutq mashqlarini yozib tahlil qilish uchun)
		7. Portativ audio kolonkalar
		8. Metronom va ritm qurilmalari (ritm mashqlarida)
		9. Projektor yoki monitor (video darslar, namoyishlar uchun)
10. Rangli karton, qogʻoz, marker, boʻyoqlar (ijodiy mashqlar va dekor tayyorlash uchun)		

Kasbning nomi	Folklor ansambl rahbari
Mashg'ulot nomining kodi	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi	3-5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3 va 4-daraja uchun ish staji talab etilmaydi 5-darajaga uchun nomzod Folklor, vokal yoki musiqiy ijrochilik sohasida 1- yillik boshlang'ich tajriba.
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; Ish boshlashdan avval nomzod dastlabki tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tishi va sog'lig'i kasb xususiyatiga mos kelishi talab etiladi; Nomzod jismoniy bardam, ruhiy barqaror, stress holatlariga chidamli va uzoq vaqt davomida ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur; Folklor ansambli mashg'ulotlari va sahnaviy tayyorgarlik jarayonida katta jamoa bilan samarali hamkorlik qilish, ijrochilar, yoshlar va tomoshabinlar bilan muloqotda bo'lish qobiliyati talab etiladi; Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalarini o'zlashtirganligi hamda favqulodda holatlarda tezkor va xavfsiz qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi lozim Ishga munosabat va xulq-atvor: - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish;

	- Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	3-daraja boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim 4-daraja o'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim 5-daraja o'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	Mavjud emas	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Xizmatchi mutaxassis Folklor ansambl rahbari	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3-5	Folklor ansambl rahbari
	3-5	Folklor-etnografik ansambli xonanda (sozanda)si
	3-5	Badiiy bezash studiyalari rahbari
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	O'qitish natijalari	
	Mehnat vazifalari	
B1.3 Folklor ijrochiligiga boshlang'ich tayyorlov berish	B1.01.3 Folklor qo'shiq va kuylarning boshlang'ich darajada o'rgatishini tashkil etish	Mehnat harakatlari:
		1. Bolalar va yosh ijrochilarga sodda xalq qo'shiqlari va kuylarini bosqichma-bosqich o'rgatish
		2. Qo'shiq va kuylarning ritm, nafas va talaffuz bo'yicha boshlang'ich mashqlarini tashkil qilish
		3. O'rgatilayotgan kuy yoki qo'shiqni namoyish qilib, ijrochilarning qaytarib ijro etishini nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Sodda folklor qo'shiqlari va kuylarini oson, aniq va to'g'ri ko'rsatib berish

		Ritm, nafas va tovush chiqarish bo'yicha boshlang'ich musiqa mashqlarini tashkil qilish Ijrochilarning xatolarini sezish va ularni muloyimlik bilan to'g'rilash Bilim: O'zbekiston xalq qo'shiqlari, kuylarining asosiy ritm va ohang xususiyatlari Boshlang'ich vokal, nafas va ritm mashqlarining metodikasi Yosh ijrochilar bilan ishlash psixologiyasi va pedagogik yondashuvlar
	B1.02.3 Ansambl uchun sodda repertuar namunalarini shakllantirish	Mehnat harakatlari: 1. Yosh ijrochilarga mos eng sodda folklor qo'shiqlari va kuylaridan iborat repertuar tanlash 2. Repertuardagi qo'shiqlarni ansambl tarkibiga moslashtirish 3. Tanlangan repertuarni bosqichma-bosqich mashq qildirish jarayonini tashkil qilish Ko'nikma: Folklor ijodidan yosh ansamblga mos qo'shiqlarni tanlash Repertuarni ijrochilarning imkoniyatiga qarab soddalashtirish Mashq jarayonini tartibli tashkil etish va takrorlashlar orqali mustahkamlash Bilim: Folklor repertuar turlari (qo'shiq, lapar, terma, yalla)ning asosiy xususiyatlari Bolalar ansambliga mos temp, ritm va diapazon bo'yicha talablar Repertuar shakllantirishning boshlang'ich pedagogik tamoyillari
	B1.03.3 Ijrochilar bilan individual musiqa va ovoz mashqlarini o'tkazish	Mehnat harakatlari: 1. Har bir ijrochi uchun alohida nafas, ovoz ochish va intonatsiya mashqlarini o'tkazish 2. Ovoz chiqarishdagi xatolarni aniqlab, individual yo'l-yo'riq berish 3. Ijrochining ovoz imkoniyatiga mos qo'shiq parchalarini mashq qildirishni tashkil etish Ko'nikma: Ovoz ochish, nafas boshqaruvi va intonatsiya mashqlarini o'tkazish Har bir ijrochining ovoz diapazonini aniqlash Ovozdagi xatolarni to'g'ri yo'naltirish va individual yondashuvni qo'llash Bilim: Vokal texnikaning asosiy qonuniyatlari (nafas, rezonans, artikulyatsiya)

		Yosh ijrochilarda ovozning fiziologik xususiyatlari
		Individual vokal mashg'ulotlar metodikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Folklor qo'shiqlari va kuylarini boshlang'ich darajada ijrochilarga o'rgatish jarayonini mustaqil tashkil etish
		2. Ansambl ijrochilarining boshlang'ich vokal va musiqa mashqlarini nazorat qilish
		3. Repertuar namunalarini tanlash va ularni ijrochilarga tushunarli tarzda o'rgatish
B2.4 Folklor ansamblida ijrochilarni o'rtacha darajada tayyorlash va repertuarni rivojlantirish	B2.01.4 Folklor kuy va qo'shiqlarni guruh bo'lib ijro etishga yo'naltirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ansambl ijrochilarini guruhlar bo'yicha taqsimlab, qo'shiq va kuylarni birgalikda ijro etishga o'rgatish
		2. Guruh ichidagi ritm, intonatsiya va garmoniyani uyg'unlashtirish
		3. Guruh mashqlarini nazorat qilib, xatolarni tuzatish va uyg'un ijroga yo'naltirish ishlarini olib borish
		Ko'nikma:
		Guruhdagi ijrochilarni birlashtirish va hamohang ijroga yo'naltirish
		Ansambl ichida ritm, ohang va tempni uyg'unlashtirish
		Guruhdagi xatolarni tez aniqlash va tuzatish
		Bilim:
		Folklor kuy va qo'shiqlarining guruh ijrosiga xos xususiyatlari
		Ansambl bo'yicha ritm, intonatsiya va garmoniyaga oid metodik tamoyillar
		Guruh pedagogikasi va yosh ijrochilar bilan ishlashning psixologik asoslari
	B2.02.4 Ijrochilar bilan ovoz va musiqa bo'yicha murakkabroq tayyorgarlikni olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Har bir ijrochiga murakkabroq vokal va ritm mashqlarini o'tkazish
		2. Ovoz, intonatsiya va nafasni boshqarish bo'yicha individual va guruh mashqlarini tashkil qilish
		3. Ijrochilarni murakkab repertuar qismlarini ijro etishga tayyorlash
		Ko'nikma:
		Murakkab vokal va musiqa mashqlarini o'tkazish
		Ijrochilarni individual ovoz imkoniyatlariga mos yo'naltirish
		Murakkab repertuar bo'yicha guruh va individual mashqlarni uyg'unlashtirish
		Bilim:
		Vokal va musiqa texnikasining rivojlangan darajadagi qonuniyatlari

		Murakkab folklor asarlarini ijro etish bo'yicha pedagogik metodlar
		Ovoz va musiqa mashqlarining pedagogik va amaliy asoslari
	B2.03.4 Repertuarni milliy festivallarga moslab tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Tanlangan repertuarni milliy festival yoki ommaviy tadbir talablariga moslashtirish
		2. Ijrochilarni festival formatiga qarab sahna harakati, intonatsiya va ritm bo'yicha tayyorlash
		3. Festival repertuarini repetitsiya jarayonida sinab ko'rish va yakuniy tayyorgarlikni nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Repertuarni festivallarga moslashtirish va sahnaga tayyorlash
		Ijrochilarni festival talablariga mos ravishda yo'naltirish
		Festival repertuarini yakuniy nazorat va tahlil qilish
		Bilim:
		Milliy festivallar va ommaviy tadbirlar talablari
		Repertuarni festivalga moslashning uslubiy va texnik jihatlari
		Ommaviy chiqishlarda ijrochilarni boshqarish pedagogikasi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Ansambl ijrochilarini o'rtacha darajada tayyorlash va repertuarni rivojlantirish jarayonini mustaqil tashkil etish
		2. Guruh ichidagi musiqa va vokal mashqlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish
		3. Repertuarni milliy festivallar va tadbirlarga moslab takomillashtirish va tayyorlash
B3.4 Ansamblning sahnaviy faoliyatini tashkil etish	B3.01.4 Ansambl faoliyatini rejalashtirish va badiiy yo'nalishni belgilash	Mehnat harakatlari:
		1. Ansamblning yillik va mavsumiy ish rejalarini ishlab chiqish
		2. Badiiy yo'nalish va repertuarni belgilab, ijodiy strategiyani ishlab chiqish
		3. Ijodiy jamoa ishini muvofiqlashtirib, vazifalarni taqsimlash va nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Ansambl faoliyatini rejalashtirish va boshqarish
		Badiiy yo'nalishni aniqlash va repertuarni shakllantirish
		Jamoa ishini tashkil etish va nazorat qilish
		Bilim:
		Folklor ansamblarining badiiy tuzilishi va ishlash prinsiplari

		Repertuar tanlash va badiiy yo'nalish belgilash metodikasi
		Jamoani boshqarish va ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish nazariyasi
	B3.02.4 Sahna ko'rinishlari uchun milliy musiqiy materiallarni tanlash va tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Milliy qo'shiq va kuylarni sahna ko'rinishlariga moslab tanlash
		2. Tanlangan materiallarni ansambl ijrosiga moslashtirish va o'rgatish
		3. Musiqiy materiallarni sahna repertuariga kiritish uchun repetitsiya jarayonini tashkil qilish
		Ko'nikma:
		Milliy musiqiy materiallarni tanlash va sahna ijrosiga moslashtirish
		Ansambl ijrochilariga musiqiy materiallarni o'rgatish va uyg'unlashtirish
		Repetitsiya jarayonida materiallarni sinab ko'rish va tahrirlash
		Bilim:
		Milliy musiqiy materiallarning janr va turli ijro usullari
		Folklor ijrosini sahnaga moslashtirish metodikasi
		Repetitsiya va sahna ko'rinishlarini tashkil etish prinsiplar
	B3.03.4 Repetitsiya jarayonini boshqarish va ijroni uyg'unlashtirish	Mehnat harakatlari:
		1. Repetitsiya mashg'ulotlarini rejalashtirish va tartibga solish
		2. Ijrochilar ijrosini nazorat qilish, xatolarni tuzatish va uyg'un ijroni ta'minlash
		3. Sahna ko'rinishlarini yakuniy tayyorgarlik bosqichida mukammallashtirish
		Ko'nikma:
		Repetitsiya jarayonini samarali boshqarish
		Ijrochilar ijrosini uyg'unlashtirish va mukammallashtirish
		Sahna ko'rinishlarini yakuniy tayyorgarlik bosqichida nazorat qilish
		Bilim:
		Repetitsiya jarayonining pedagogik va badiiy asoslari
		Ijro uyg'unligini ta'minlash metodikasi
		Sahna ko'rinishlarini mukammal namoyishga tayyorlash prinsiplari
	Mas'uliyat mustaqillik va	1. Ansamblning sahnaviy faoliyatini rejalashtirish va boshqarish
		2. Repetitsiyalar, sahna ko'rinishlari va ijro jarayonini muvofiqlashtirish

		3. Ijrochilar faoliyatini nazorat qilish va sahna chiqishlarining sifatini ta'minlash
B4.5 Folklor ansamblini professional darajada boshqarish	B4.01.5 Ansamblning yillik ijodiy konsepsiyasini ishlab chiqish va ijrochilar tarkibini shakllantirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ansamblning yillik repertuar va ijodiy rejasini ishlab chiqish
		2. Ijrochilar tarkibini tahlil qilish va yangi ijrochilarni tanlash, jamoa tarkibini shakllantirish
		3. Ijodiy va badiiy yo'nalishlarni belgilab, ansambl faoliyatini strategik jihatdan rejalashtirish
		Ko'nikma:
		Ansambl yillik ijodiy konsepsiyasini yaratish va rejalashtirish
		Ijrochilarni tanlash, ularni guruh tarkibida samarali joylashtirish
		Badiiy strategiya va jamoani boshqarish
		Bilim:
		Folklor ansamblarining badiiy tuzilishi va strategik ishlash tamoyillari
	B4.02.5 Murakkab musiqa va vokal uyg'unligini ta'minlovchi repetitsiyalarni boshqarish	Repertuarni yillik konsepsiya asosida shakllantirish metodikasi
		Jamoa boshqaruvi va ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish nazariyasi
		Mehnat harakatlari:
		1. Murakkab musiqa va vokal qismlarini ansambl ijrochilariga moslab boshqarish
		2. Guruh ichida ritm, ohang va garmoniyani uyg'unlashtirish
		3. Repetitsiya jarayonida individual va guruh ishlarini nazorat qilib, yakuniy tayyorgarlikni ta'minlash
		Ko'nikma:
		Murakkab vokal va musiqa uyg'unligini tashkil etish
		Guruh va individual mashqlarni uyg'unlashtirish
